

MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI ANIQLASH VA BOSHQARISH

METODIK QO‘LLANMA



HALOLLIK
Bizning kuchimiz.



ISHONCH
Mijozlar, hamkorlar
va jamiyat ishonchi.



ADOLAT
Qarorlarimizda xolis
va adolatli bo‘lamiz.



SHAFFOFLIK
Ochiq ma‘lumot va
shaffof jarayonlar –
bizning tamoyilimiz.



XOLISLIK
Shaxsiy manfaatlarni
chetga surib, faqat
Bank manfaatini
o‘ylaymiz.



SQB Bank



Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati



2026–yil

MANFAATLAR TO'QNASHUVINI ANIQLASH VA BOSHQARISH

METODIK QO'LLANMA



HALOLLIK

Bizning kuchimiz.



ISHONCH

Mijozlar, hamkorlar
va jamiyat ishonchi.



ADOLAT

Qarorlarimizda xolis
va adolatli bo'lamiz.



SHAFFOFLIK

Ochiq muloqot va
shaffof jarayonlar.



Halollik — bu nafaqat qadriyat,
balki har bir qarorimizning asosi.



MUNDARIJA

	1. KIRISH Manfaatlar to'qnashuvi va uning ahamiyati	03
	2. MANFAATLAR TO'QNASHUVI NIMA? Ta'rif, asosiy tushunchalar va misollar	04
	3. MANFAATLAR TO'QNASHUVINING TURLARI Turlari va ularning xususiyatlari	06
	4. O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash mezonlari	08
	5. DEKLARATSIYA VA MA'LUMOT BERISH Ma'lumot berish tartibi va shakllari	10
	6. MA'LUMOT BERISH MUDDATLARI Qachon va qanday muddatlarda beriladi	11
	7. MA'LUMOT BERMASLIK OQIBATLARI Qarorlar va javobgarlik choralari	12
	8. MA'LUMOT BERISH KANALLARI Xabar berish usullari va kanallari	13
	9. MA'LUMOT KIMGA BERILADI? Vakolatli shaxslar va javobgar bo'linmalar	14

KIRISH

Hurmatli hamkasblar!

Bank faoliyatida halollik, xolislik va shaffoflik tamoyillariga rioya etish har bir xodimning kasbiy burchi va Bankning barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

Manfaatlar to'qnashuvi har doim ham qonunbuzarlik emas. Biroq u o'z vaqtida aniqlanmasa va tegishli tartibda boshqarilmasa, qarorlar xolisligiga, Bank obro'siga hamda mijozlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur metodik qo'llanma "O'zsanoatqurilishbank" ATBda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha amaldagi Nizom talablarini sodda, tushunarli va amaliy misollar orqali yoritish maqsadida ishlab chiqildi.

Unda xodimlar va rahbarlar uchun manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va to'g'ri boshqarish bo'yicha tavsiyalar, infografikalar hamda amaliy vaziyatlar keltirilgan.

Har bir xodimning halol, xolis va mas'uliyatli yondashuvi Bankda ochiqlik va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Halollik — bu nafaqat qadriyat,
balki har bir qarorimizning asosi.



MANFAATLAR TO'QNASHUVI NIMA?

Manfaatlar to'qnashuvi – bu xodimning shaxsiy yoki yaqin qarindoshlarining manfaatlar Bankning manfaatlariga zid kelib qolishi yoki shunday ko'rinish paydo bo'lishi mumkin bo'lgan holatlardir.

ASOSIY XUSUSIYATLARI



XODIMGA TEGISHLILIGI

Xodimning o'zi, yaqin qarindoshlari yoki unga yaqin shaxslar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



QAROR XOLISLIGIGA TA'SIRI

Bank manfaatlariga zid ravishda qaror qabul qilish xavfini yuzaga keltiradi.



DOIMO SALBIY OQIBAT BERMAYDI

Agar o'z vaqtida aniqlanib, tegishli tartibda boshqarilsa, salbiy oqibatlar oldi olinadi.



SHAFFOFLIK VA OCHIQLIKNI TALAB QILADI

Har bir xodim manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berishi va deklaratsiya topshirishi lozim.



O'z vaqtida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi – xolis qaror, ishonchli Bank va barqaror kelajak garovidir.

**100%**

XODIMLAR XABARDOR
BO'LISHI LOZIM



XODIM UCHUN ESLATMA:



Shaxsiy manfaatlar
va Bank
manfaatlarini
aralashtirmang.



Mumkin bo'lgan
manfaatlar
to'qnashuvini
yashirmang.



Shubha tug'ilgan
holatda rahbaringiz
yoki Compliance
bo'limiga
murojaat qiling.



Halollik –
eng yaxshi
himoya
vositasidir.

MANFAATLAR TO'QNASHUVI QAYERDA PAYDO BO'LISHI MUMKIN?

Bank faoliyati davomida xodimlar turli vaziyatlarda manfaatlar to'qnashuviga duch kelishi mumkin.

Quyidagi yo'nalishlar bunga misol bo'la oladi:



1. Kredit berish jarayonida

Xodim mijoz bilan yaqin qarindoshligi yoki shaxsiy aloqadorligi mavjud bo'lgan holatlarda qaror qabul qilishda xolis bo'la olmasligi mumkin.



4. Xarid va ta'minot jarayonida

Xodim yetkazib beruvchi tashkilotda ulushi yoki manfaatdorligi bo'lsa, tanlov va shartnoma tuzish jarayonida to'qnashuv yuzaga keladi.



2. Kadrlar bilan ishlashda

Yaqin qarindoshlarni ishga qabul qilish, lavozimga tavsiya etish yoki rag'batlantirish jarayonida shaxsiy manfaat ustun kelishi mumkin.



5. Moliyaviy xizmatlarda

Xodim o'z shaxsiy manfaatini Bank yoki mijoz manfaatidan ustun qo'yishi mumkin bo'lgan vaziyatlar.



3. Shartnomalar tuzishda

Xodim o'zi yoki yaqin qarindoshiga tegishli tashkilot bilan shartnoma tuzishda bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lishi mumkin.



6. Boshqa holatlar

Bank aktivlaridan shaxsiy maqsadlarda foydalanish, ma'lumotlardan shaxsiy foyda olish va boshqa shunga o'xshash vaziyatlar.



ESDA TUTING!

Manfaatlar to'qnashuvi har doim ham zararli oqibatlarga olib kelavermaydi. Biroq u o'z vaqtida aniqlanmasa va boshqarilmasa, quyidagi salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin:

- ✓ Xolis qaror qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- ✓ Bank obro'siga putur yetkazadi;
- ✓ Mijozlar ishonchiga zarar yetkazadi;
- ✓ Qonun buzilishiga va intizomiy javobgarlikka olib keladi.



Har bir xodim o'z vazifalarini bajarishda faqat Bank va mijoz manfaatlarini ustuvor qo'yishi lozim.



O'z vaqtida aniqlash – muammoning oldini olishning eng samarali yo'lidir.

MANFAATLAR TO'QNASHUVI QACHON YUZAGA KELADI?



Muhim: manfaatlar to'qnashuvi har doim ham qonunbuzarlik emas. Biroq u o'z vaqtida aniqlanmasa va tegishli tartibda boshqarilmasa, qarorlar xolisligiga, Bank obro'siga hamda mijozlar ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MANFAATLAR TO'QNASHUVINING ASOSIY SABABLARI

- Shaxsiy yoki oilaviy manfaatlarining Bank manfaatlari bilan ustun kelishi.
- Yaqin qarindoshlar yoki yaqin shaxslar bilan bog'liq munosabatlar.
- Moliyaviy yoki mulkiy manfaatdorlik.
- Lavozim vakolatidan shaxsiy manfaat uchun foydalanish imkoniyati.
- Bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi omillar.

QACHON MANFAATLAR TO'QNASHUVI YUZAGA KELISHI MUMKIN?

Manfaatlar to'qnashuvi turli vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, xodim:

- ✓ Yaqin qarindoshning ishtirokidagi tashkilot bilan ish yuritayotganda;
- ✓ Kredit, xarid, tender, yollash yoki boshqa qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etayotganda;
- ✓ Shaxsiy manfaatdorlikka ega bo'lgan holatda Bank resurslari, ma'lumotlari yoki imkoniyatlaridan foydalanganda;
- ✓ Bank manfaatlarga zid kelishi mumkin bo'lgan boshqa vaziyatlarda.



QONUNIY ASOS

- "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"
O'zbekiston Respublikasi Qonuni

XODIM NIMA QILISHI KERAK?



1. Aniqlash

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni erta bosqichda aniqlang.



2. Xabardor qilish

Aniqlangan holat haqida rahbaringiz va Compliance bo'limiga xabar bering.



3. Boshqarish

Tegishli choralar ko'rilishini ta'minlang va zarur hollarda o'zingizni qaror qabul qilishdan chettating.



4. Hujatlashtirish

Barcha xabardor va qabul qilingan choralar hujjatlarda aks ettirilishini ta'minlang.



**Halol va xolis qarorlar –
ishonch va barqarorlikning poydevoridir.**

MANFAATLAR TO'QNASHUVI TURLARI

Manfaatlar to'qnashuvi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bank faoliyatida eng ko'p uchraydigan turlar quyidagilardir:



1. Shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi

Xodim o'zining yoki yaqin qarindoshining shaxsiy manfaatini Bank manfaatlaridan ustun qo'yishi mumkin bo'lgan holat.



2. Yaqin qarindoshlar bilan bog'liq to'qnashuv

Xodimning yaqin qarindoshi Bankning mijozlari, yetkazib beruvchilari yoki raqobatchilari bilan manfaatdor tomon sifatida ishtirok etishi.



3. Lavozim vakolatlari bilan bog'liq to'qnashuv

Xodim o'z lavozim vakolatlaridan shaxsiy manfaatlarini yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ta'minlash uchun foydalanishi.



4. Tashqi faoliyat bilan bog'liq to'qnashuv

Xodimning Bankdan tashqari faoliyati (ish, biznes, maslahatchilik va h.k.) uning Bankdagi vazifalariga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan holat.



5. Moddiy manfaatlar bilan bog'liq to'qnashuv

Xodimning sovg'a, mukofot, chegirma yoki boshqa moddiy manfaatlar olish orqali betarafligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holat.



6. Axborot bilan bog'liq to'qnashuv

Xodim maxfiy yoki ichki axborotdan o'zining yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini uchun foydalanishi mumkin bo'lgan holat.



ESDA QOLING!

Manfaatlar to'qnashuvi har doim ham zararli oqibatlarga olib kelavermaydi. Ammo uni aniqlash, oshkor etish va boshqarish – xodimning kasbiy burchidir.

MAVJUD MANFAATLAR TO'QNASHUVI



Xodimning shaxsiy manfaatlari Bank manfaatlariga zid kelgan va bu holat unga qaror qabul qilishda ta'sir ko'rsatayotgan vaziyat.

Misol:

Xodim o'ziga yaqin qarindoshiga tegishli kompaniyaga tenderda ustunlik berishi.



EHTIMOLIY MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Xodimning shaxsiy manfaatlari Bank manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan, ammo hozircha bu holat qarorga ta'sir qilmayotgan vaziyat.

Misol:

Xodimning yaqin qarindoshi Bankning potensial mijozlaridan biri bo'lishi.



Bunday holatlar yuzaga kelganda, xabar bering va o'z vaqtida oshkor qiling.



XODIM UCHUN MUHIM QOIDALAR



Shaxsiy manfaatlaringiz Bank manfaatlariga zid kelishiga yo'l qo'ymang.



Yaqin qarindoshlaringizning Bank bilan bo'lgan munosabatlarini yashirmang.



Lavozim vakolatingizni adolati va xolisona amalga oshiring.



Tashqi faoliyatingiz Bank ishiga ta'sir qilmasligiga ishonch hosil qiling.



Sovg'a va boshqa moddiy manfaatlar olishdan tiyiling.



Ichki axborot sirini saqlang va undan faqat xizmat maqsadlarida foydalaning.



**Xolislik – ishonchning asosi.
ishonch – barqarorlik garovi.**

MAVJUD VA EHTIMOLIY MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Manfaatlar to'qnashuvi turli ko'rinishlarda yuzaga keladi.

Ularning ikki asosiy turi mavjud: mavjud va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi.



MAVJUD MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Xodimning shaxsiy (yoki yaqin qarindoshining) manfaatlariga Bank manfaatlariga zid kelayotgan yoki kelishi oqibatida uning qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatayotgan holat.

Asosiy belgilari:

- ✓ To'qnashuv allaqachon mavjud;
- ✓ Qaror yoki harakatga ta'sir ko'rsatayotgan;
- ✓ Bank yoki mijozlar uchun zarar yetkazish ehtimoli yuqori.



Misol:

Xodim kredit berish jarayonida o'zining yaqin qarindoshiga tegishli kompaniyaga imtiyozli shartlarda kredit rasmiylashtiradi.



EHTIMOLIY MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Xodimning shaxsiy (yoki yaqin qarindoshining) manfaatlariga Bank manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan, ammo hozircha uning qaroriga ta'sir qilmayotgan, kelajakda ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud bo'lgan holat.

Asosiy belgilari:

- ✓ To'qnashuv hozircha yuz bermagan;
- ✓ Kelajakda yuz berishi mumkin;
- ✓ Profilaktika va nazorat orqali oldini olish mumkin.



Misol:

Xodimning yaqin qarindoshi Bankning yetkazib beruvchi kompaniyalaridan biridir ishlaydi. Hozircha xodim bu kompaniya bilan bog'liq qarorlar qabul qilmayapti.

TO'QNASHUV YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN SOHALAR



Kredit va moliyalashtirish

Kredit ajratish, muddat uzaytirish, qarzdorlikni qayta tuzish va h.k.



Xaridlar va ta'minot

Tanlov jarayonida ishtirok etuvchi kompaniyalar bilan bog'liqlik.



Kadrlar masalalari

Yollash, lavozimga tayinlash, mukofotlash, intizomiy choralar qo'llash.



Shartnomalar tuzish

Xizmat ko'rsatish, pudrat, konsalting va boshqa turdagi shartnomalar.



Sovg'a va mehmondo'stlik

Sovg'a olish yoki berish, mehmon qilish kabi holatlar.



Boshqa sohalar

Bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi boshqa barcha jarayonlar.



ESDA TUTING!

- **Mavjud** manfaatlar to'qnashuvi – darhol bartaraf etilishi kerak bo'lgan holat.
- **Ehtimoliy** manfaatlar to'qnashuvi – oldindan aniqlanib, profilaktika choralarini ko'rishni talab qiladi.
- Har ikki holatda ham xodim o'z rahbariga yoki Compliance xizmatiga xabar berishi shart.



Xabardorlik – halollik va Bank obro'sini himoya qilishning eng yaxshi yo'lidir.



QONUNIY ASOS

- "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni



Mazkur hujjatlar manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va boshqarish bo'yicha yagona yondashuv va tartiblarni belgilaydi. Har bir xodim ushbu talablarga rioya etishi shart.

MANFAATLAR TO'QNASHUVINING SALBIY OQIBATLARI

Manfaatlar to'qnashuvi nazorat qilinmasa, u Bank, xodim va mijozlar uchun katta xavf tug'diradi hamda Bankning obro'siga putur yetkazadi.



SALBIY OQIBATLAR



Bank obro'sining pasayishi

Shaffoflikka putur yetadi, mijozlar va hamkorlar ishonchi yo'qoladi.



Moliyaviy zararlar

Noto'g'ri qarorlar Bank va mijozlar uchun moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi.



Qonuniy javobgarlik

Ma'muriy, intizomiy yoki jinoyat javobgarligiga tortilish ehtimoli mavjud.



Ichki muhitga salbiy ta'sir

Xodimlar o'rtasida adolatsizlik, norozilik va motivatsiyaning pasayishiga sabab bo'ladi.



Qarorlar sifatining yomonlashuvi

Obyektivlik yo'qoladi, noto'g'ri yoki subyektiv qarorlar qabul qilinadi.



Intizomiy choralar qo'llanishi

Bank ichki me'yorlari bo'yicha ogohlantirishdan tortib, lavozimdan ozod qilishgacha bo'lgan choralar qo'llanadi.



BUNI YODDA TUTING!



Har bir xodimning halolligi, obyektivligi va mas'uliyatli yondashuvi Bankning barqarorligini ta'minlaydi.



Adolatli qaror – ishonchli munosabatlar asosidir.



Shaffoflik – samarali boshqaruvning kafolatidir.



Halollik – har bir xodimning kasbiy va axloqiy burchidir.

XODIM NIMA QILISHI KERAK?



O'z manfaatlari va Bank manfaatlari o'rtasida to'qnashuv mavjudligini erta aniqlang.



To'qnashuv ehtimolini sezgan zahoti rahbari va/yoki Compliance bo'limiga xabar bering.



Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalarga amal qiling.



Qaror qabul qilishda faqat Bank va mijoz manfaatlarini ustuvor qo'ying.



Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini o'z vaqtida va to'g'ri to'ldiring.



ESDA TUTING!

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish – bu nafaqat ichki qoidalar talabi, balki professionallik va halollik belgisi.



Har birimizning ongli va mas'uliyatli yondashuvimiz Bankning bugungi muvaffaqiyati va ertangi ishonchli kelajagini ta'minlaydi.



Kelajakni
birga yaratamiz

MANFAATLAR TO'QNASHUVINI BOSHQARISH TAMOYILLARI

Bankda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni boshqarish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:



1. Halollik va xolislik

Xodim o'z manfaatlaridan ustuvor ravishda Bank manfaatlarini ko'zlab ish yuritadi.



2. Ochiq va shaffoflik

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar o'z vaqtida aniqlanadi va oshkor etiladi.



3. Oldini olish

Xavfli vaziyatlar yuzaga kelishidan oldin ularning oldi olinadi, protseduralar va nazorat mexanizmlari joriy etiladi.



4. Mas'uliyat va javobgarlik

Har bir xodim manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va uni boshqarish uchun shaxsan javobgardir.



5. Adolat va teng munosabat

Bank qarorlarida barcha mijozlar va hamkorlarga nisbatan adolatli va teng yondashuv ta'minlanadi.



6. Maxfiylik va axborot xavfsizligi

Bank va mijozlar ma'lumotlari maxfiyligi saqlanadi hamda ular faqat xizmat maqsadida foydalaniladi.



ESDA TUTING!

Manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish – bu nafaqat qonunchilikka rioya qilish, balki mijozlar ishonchini qozonish va Bank obro'sini mustahkamlashning muhim omilidir.



Halollik, shaffoflik va mas'uliyatli yondashuv bizni mustahkam va ishonchli Bankka aylantiradi.



XODIMNING MAJBURIYATLARI



O'z manfaatlari Bank manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan holatlar haqida bevosita rahbariga va Compliance xizmatiga xabar berish.



Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan holatlarda qaror qabul qilish jarayonidan o'zini chetga olish.



Bank mulki, axboroti va imkoniyatlaridan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanmaslik.



Oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining Bank bilan bog'liq faoliyati haqida o'z vaqtida ma'lumot berish.



Ichki me'yoriy hujjatlar va qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish.



Manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan berilgan ko'rsatmalarni bajarish va zarur choralarni ko'rish.

DEKLARATSIYA QACHON TOPSHIRILADI?

Deklaratsiya – bu xodimning o'ziga, yaqin qarindoshlariga va bog'liq shaxslarga tegishli manfaatlari haqida ma'lumot berish hujjatidir. Uni Bank tomonidan belgilangan muddatlarda topshirish majburiy.



DEKLARATSIYA TOPSHIRILADIGAN HOLATLAR



YILLIK (MUNTAZAM) DEKLARATSIYA

Har yili 31-dekabr holatiga
ko'ra keyingi yilning

15-YANVARIGACHA



LAVOZIM YOKI BO'LIM O'ZGARGANIDA

Yangi lavozimga tayinlangan yoki
boshqa bo'limga o'tganingizdan

**KEYIN 10 (O'N)
ISH KUNI ICHIDA**



BANKDA ICHKI O'ZGARISHLAR BO'LGANDA

Tashkiliy tuzilma, vakolatlar yoki
nazorat mexanizmlarida muhim
o'zgarishlar yuz berganida



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA O'ZGARISHLAR BO'LGANDA

Qonunchilik talablariga muvofiq
– Bank talabi bo'yicha

1

2

3

4



XABARNOMA TOPSHIRISH SHART BO'LGAN HOLATLAR

**(ANIQLANGANIDAN KEYIN
1ISH KUNI ICHIDA)**

1



Yaqin qarindoshlari bevosita
xodimning bo'ysunuvidagi
ishga qabul qilingan bo'lsa

2



U o'ziga aloqador shaxslarga
taalluqli masalalar bo'yicha
qarorlar qabul qilishda
ishtirok etayotgan bo'lsa

3



Yaqin qarindoshi yoki yaqin
qarindoshlarining Bank bilan
bog'liq faoliyati haqida o'z
vaqtida ma'lumot berilmagan bo'lsa

4



Boshqa har qanday mavjud
manfaatlar to'qnashuvi o'ziga
ma'lum bo'lib qolsa



ESDA TUTING!

Deklaratsiyani o'z vaqtida va to'g'ri topshirish – Sizning halolligingiz va Bankka ishonchning muhim ko'rsatkichidir.
Deklaratsiya faqat Bank tomonidan belgilangan shaklda va rasmiy kanallar orqali topshiriladi.



O'z vaqtida va to'g'ri to'ldirilgan
deklaratsiya – xolislik, ochiqlik va
ishonchning asosidir.

DEKLARATSIYA TOPSHIRILMASA NIMA BO'LADI?

Deklaratsiyani o'z vaqtida topshirmaslik yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim etish Bank ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.



DEKLARATSIYA TOPSHIRILMASA QUYIDAGI HOLATLAR KELIB CHIQADI:



1

MANFAATLAR TO'QNASHUVI ANIQLANMAY QOLADI

Xodimning shaxsiy manfaatlarini Bank manfaatiga zid kelishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlanmay qoladi.



2

XOLIS QAROR QABUL QILISH XAVF OSTIDA QOLADI

Bank qarorlari xolislik va adolat tamoyillariga zid bo'lishi, bu esa moliyaviy va obro'-e'tibor risklariga olib keladi.



3

BANK OBRO'SI VA MIJOZLAR ISHONCHI ZARAR KO'RADI

Shaffoflik va halollik tamoyillarining buzilishi Bank nufuziga salbiy ta'sir qiladi.



4

QONUNCHILIK VA ICHKI HUJJATLAR TALABLARI BUZILADI

"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun va Bankning ichki hujjatlariga rioya etilmaydi.



5

JAVOBGARLIKKA SABAB BO'LADI

Bankning ichki tartib-qoidalar va amaldagi qonunchilikka muvofiq intizomiy, ma'muriy yoki boshqa javobgarlik choralari qo'llaniladi.

MUMKIN BO'LGAN JAVOBGARLIK CHORALARI



INTIZOMIY JAVOBGARLIK

Ogohlantirish, hayfsan, lavozimdan ozod etish yoki boshqa intizomiy choralari.



MODDIY JAVOBGARLIK

Bank yoki mijozlarga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlik qo'llanishi mumkin.



MA'MURIY JAVOBGARLIK

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq jarima solinishi mumkin.



BOSHQA JAVOBGARLIK TURLARI

Qonunchilikka muvofiq boshqa turdagi javobgarlik choralari qo'llanishi mumkin.



MUHIM!

Deklaratsiya – bu nazorat vositasi emas, balki siz va Bank manfaatlarini himoya qiladigan muhim kafolatdir.



ESDA TUTING!

Deklaratsiyani o'z vaqtida va to'g'ri topshirish – Sizing halolligingiz va Bankka ishonchning muhim ko'rsatkichidir.

XABARNOMA NIMA?

Xabarnoma – bu xodim tomonidan o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi holati haqida belgilangan shaklda taqdim etiladigan rasmiy xabardir.



Xabarnoma manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, xolislik va halollikni ta'minlash maqsadida taqdim etiladi.

XABARNOMA NIMALARNI QAMRAB OLADI?



Xodimning o'zi haqida umumiy ma'lumotlar



Aloqador shaxslar haqida ma'lumotlar (yaqin qarindoshlar va boshqalar)



Manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan holatning tavsifi



Holat yuz bergan sana va boshqa muhim ma'lumotlar

XABARNOMANING AHAMIYATI

- ✓ Manfaatlar to'qnashuvini erta aniqlashga yordam beradi
- ✓ Xolis va adolatli qaror qabul qilishni ta'minlaydi
- ✓ Korrupsion xavf-xatarlarning oldini olishga xizmat qiladi
- ✓ Bank obro'sini va mijozlar ishonchini himoya qiladi
- ✓ Qonunchilik va ichki hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlaydi




MUHIM!

Xabarnoma – xodimni jazolash uchun emas.
Bu Bankda halollik, shaffoflik va xolislik muhitini ta'minlash uchun muhim vositadir.



ESLANG!

Xabarnoma topshirish – har bir xodimning mas'uliyati va burchidir.



Xabarnoma orqali bildirilgan ma'lumotlar maxfiylikni saqlash kafolatlanadi.



Vaqtida xabar berish – muammolarni oldini olishning eng samarali yo'lidir.

XABARNOMA QACHON BERILADI?

Mavjud manfaatlar to'qnashuvi o'ziga ma'lum bo'lib qolgan paytdan e'tiboran **1 (bir) ish kuni ichida** belgilangan shakldagi xabarnoma to'ldiriladi va taqdim etiladi.



XABARNOMA

Holat aniqlangandan so'ng

1 ish kuni

XABARNOMA QUYIDAGI HOLATLARDA BERILADI:



1

YAQIN QARINDOSH ISHGA QABUL QILINSA

Yaqin qarindoshlar bevosita xodimning bo'ysunuvchidagi ishga qabul qilingan bo'lsa (siyosiy lavozimlar bundan mustasno) yoki xodimning ishiga ta'sir ko'rsatadigan shartnoma asosida o'ziga aloqador shaxslar jalb etilgan bo'lsa.



2

TASHQI SHAXSLARGA TAALLUQLI MAQSADLARGA BO'YICHA QAROR QABUL QILISHDA ISHTIROK ETILSA

O'ziga aloqador shaxslarga taalluqli maqsadlar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etayotgan bo'lsa.



3

YAQIN QARINDOSH ISHLASHI MUMKIN BO'LGAN OBYEKTlarda ISHLASA

Yaqin qarindoshi tekshirish o'tkazilayotgan obyektida (yuridik shaxsda) tekshituv yoki yuritishi joyda ham o'zish mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan bo'lsa yoki mazkur tekshiruv obyekti (yuridik shaxs) unga aloqador shaxs bo'lsa.



4

BOSHQA HAR QANDAY HOLAT

Boshqa har qanday mavjud manfaatlar to'qnashuvi o'ziga ma'lum bo'lib qolsa.

XABARNOMA BERISH JARAYONI



1

HOLATNI ANIQLASH

Manfaatlar to'qnashuvi holati o'ziga ma'lum bo'ladi.



2

1 ISH KUNI ICHIDA XABARNOMA TO'LDIRISH

Belgilangan shakldagi xabarnoma to'ldiriladi.
Muddat: holat aniqlangandan so'ng **1 (bir) ish kuni ichida**.



3

TAQDIM ETISH

Xabarnoma o'zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbariga – yaqori turuvchi rahbarga) yoki Maxsus bo'limga taqdim etiladi.



4

KO'RIB CHIQISH VA CHORA KO'RISH

Tashkilot xabarnomani ko'rib chiqadi va zarur choralarni ko'radi.



MUHIM!

Xabarnomani o'z vaqtida bermaslik qonunchilikka zid hisoblanadi va intizomiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.



ESDA TUTING!

Xabarnoma manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, ochiqlik va halollikni ta'minlashga xizmat qiladi.

XABARNOMA KIMGA YUBORILADI?

Xabarnoma belgilangan tartibda tegishli shaxslarga yoki maxsus bo'linmaga taqdim etiladi.

XABARNOMA QAYSI SUBYEKTLARGA YUBORILADI?



1 O'Z BEVOSITA RAHBARIGA

Xodim avvalo o'zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbariga – yuqori turuvchi rahbarga) xabarnoma taqdim etadi.



2 MAXSUS BO'LINMAGA

Agar bevosita rahbariga taqdim etish imkoni bo'lmasa yoki manfaatlar to'qnashuvi rahbar bilan bog'liq bo'lsa, maxsus bo'linmaga taqdim etiladi.



Xabarnoma kanallar orqali yuborilganda ham u tegishli bo'linma tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va ko'rib chiqiladi.

XABARNOMANI QUYIDAGI ALOQA KANALLARI ORQALI HAM YUBORISH MUMKIN:



Ishonch telefoni

0-800-120-88-88

(bepul, 24/7)



Telegram bot

@sqbantikor_bot

(24/7)



Compliance Hotline
(onlayn shakl)

**[https://www.sqb.uz/uz/
compliance-hotline/](https://www.sqb.uz/uz/compliance-hotline/)**
(24/7)



Ishonch vakillari orqali

Bankning ichki aloqa
tizimi orqali



MUHIM!

- ✓ Xabarnoma berish – xodimning qonunchilikka bo'lgan **majburiyatidir**.
- ✓ O'z vaqtida xabar berish – korrupsion **risklarning** oldini olishga xizmat qiladi.
- ✓ Xabarnoma **maxfiyligi** va xodim huquqlari qonun bilan himoyalangan.



MAXFIYLIK KAFOLATIANADI

Xabarnoma yuborgan xodimning shaxsi ma'lumoti maxfiy saqlanadi va u hech qanday salbiy oqibatlariga uchramaydi. Qonun xodimning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qiladi.



Halollik – ishonch asosidir!

Shubhali holatlarni yashirmang, xabardor qiling!



0-800-120-88-88
(bepul, 24/7)



@sqbantikor_bot
(24/7)



**[https://www.sqb.uz/uz/
compliance-hotline/](https://www.sqb.uz/uz/compliance-hotline/)**
(24/7)

XABARNOMA YUBORILGANDAN KEYIN JARAYON QANDAY DAVOM ETADI?

Xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi haqida xabarnoma taqdim etilgandan so'ng, holat Banking ichki tartiblariga muvofiq ko'rib chiqiladi, baholanadi va zarur boshqaruv choralari belgilanadi.



XABARNOMA KO'RIB CHIQISH JARAYONI

1



Xabarnoma qabul qilinadi

Xabarnoma rahbar yoki muvofiqlik bo'limi tomonidan qabul qilinadi va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

2



Holat o'rganiladi

Taqdim etilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi hamda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlanadi.

3



Risk baholanadi

Holatning Bank faoliyati, qarorlarning xolisligi va Bank obro'siga ta'siri baholanadi.

4



Qaror qabul qilinadi

Zaruratga qarab xodimni qaror qabul qilishdan chetlashtirish, qo'shimcha nazorat o'rnatish yoki boshqa boshqaruv choralari belgilanadi.

5



Nazorat amalga oshiriladi

Belgilangan choralarning bajarilishi monitoring qilinadi va holat bartaraf etilgunga qadar nazorat davom ettiriladi.



NIMA UCHUN MUHIM?

O'z vaqtida xabar berish – ishonchni mustahkamlaydi, normodalarning xavflarini kamaytiradi va Banking barqaror boshqaruv tizimini ta'minlaydi.



Xolis qarorlar qabul qilishga yordam beradi



Muvofiqlik madaniyatini kuchaytiradi



Bank obro'sini va mijozlar ishonchini himoya qiladi.



ESDA TUTING!

Agar siz manfaatlar to'qnashuvi haqida o'z vaqtida xabar bersangiz:

- ✓ qonunchilik va Banking ichki hujjatlari talablariga amal qilgan bo'lasiz;
- ✓ manfaatlar to'qnashuvi o'z vaqtida boshqariladi;
- ✓ Bank va o'zingizni ehtimoliy xavflardan himoya qilasiz.



XODIMDAN NIMA TALAB ETILADI?

- ✓ So'ralgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish.
- ✓ Zarur hujjatlarni o'z vaqtida topshirish.
- ✓ Belgilangan cheklovlarga rioya qilish.
- ✓ Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etmaslik (zarur hollarda).



MUHIM!

Xabarnoma berilganligi xodimning aybdorligini anglatmaydi.

Uning maqsadi — manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va xolis boshqarishni ta'minlashdir.



MAXFIYLIK KAFOLATLANADI

Xabarnoma bo'yicha olingan barcha ma'lumotlar belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi hamda xodimning shaxsiy ma'lumotlari va huquqlari qonunchilik asosida himoya qilinadi.

QAROR DARAXTI (DECISION TREE)

Qaror daraxti — bu manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beradigan oddiy vositadir.



Uchta bosqichli yondashuv:
ANIQLA — BAHOLA — HARAKAT QIL

**QAROR QABUL QILISHDAN OLDIN
O'ZINGIZGA QUYIDAGI SAVOLLARNI BERING:**



Bu qaror oshkoraligi bilan izohlashim mumkinmi?



Agar bu vaziyat ommaga ma'lum bo'lsa, o'zimni qanday his qilardim?



Bu qaror Bank siyosatiga va etik me'yorlarga mosmi?



Bu qaror Bank obro'siga zarar yetkazadimi?



Agar hamkasbim xuddi shunday qilsa, uni adolatli deb bilarmidim?



Qaror daraxti har bir xodimga murakkab vaziyatlarda izchil va xolis qaror qabul qilishga yordam beradi.
Shubha bo'lsa — **ochiqlik va maslahat** yo'lini tanlang.



MUHIM!


- ✓ Xabarnoma berish — xodimning qonunchilikka zid hisoblanadi va **intizomiy javobgarlikka** sabab bo'ladi.
- ✓ O'z vaqtida xabar berish — **korruptsiya risklarining** oldini olishga xizmat qiladi.
- ✓ Xabarnoma **maxfiyligi** va xodim huquqlari qonun bilan himoyalangan.



MAXFIYLIK KAFOLATLANADI

Xabarnoma yuborgan xodimning shaxsiy ma'lumoti maxfiy saqlanadi va u hech qanday salbiy oqibatlarga uchramaydi. Qonun xodimning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qiladi.

QAROR DARAXTI SXEMASI



KREDIT BO'YICHA MISOLLAR

Quyidagi vaziyatlarda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin.
Har bir misolda xavfni aniqlang va to'g'ri harakatni tanlang.



1



Yaqin qarindoshga kredit

Sizning yaqin qarindoshingiz kredit olish uchun ariza berdi. U barcha talablarga javob beradi, ammo siz qaror jarayoni va ijobiy chiqishiga ta'sir qilishingiz mumkin.



XAVF

Shaxsiy munosabatlar qaror xolisligiga ta'sir qilishi mumkin. Bu Bank obro'siga zarar yetkazadi va adolatsizlikka olib kelishi mumkin.



TO'G'RI HARAKAT

O'zingizni jarayondan chetlashtiring va arizani boshqa xodim tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlang.

2



Aloqador kompaniyaga kredit

Siz avval ishlagan kompaniya, hozir esa do'stingiz rahbarlik qilayotgan korxonaga yirik kredit ajratish masalasi ko'rib chiqilmoqda.



XAVF

O'tishdagi munosabatlar yoki do'stona aloqalar xolislikka ta'sir qilishi, Bank manfaatlariga zid bo'lishi mumkin.



TO'G'RI HARAKAT

O'zingizni jarayondan chetlashtiring, barcha hujjatlar va tahlillar mustaqil ravishda ko'rib chiqilishini ta'minlang.

3



Sovg'a yoki xizmat evaziga imtiyoz so'ralishi

Mijoz sizga qimmatbaho sovg'a yoki shaxsiy xizmat taklif qilib, kredit shartlarini yengillashtirishingizni so'raydi.



XAVF

Bu holat pora olish yoki manfaatlar to'qnashuvi sifatida baholanishi, jinoiy va intizomiy javobgarlikka olib keladi.



TO'G'RI HARAKAT

Sovg'ani rad eting va bu haqida to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatingiz yoki Xizmat tekshiruvi bo'limiga xabar bering.



ESDA TUTING!

Har qanday kredit qarori — xolis, adolatli va Bank manfaatlariga mos bo'lishi kerak.
Shaxsiy manfaat hech qachon ustun bo'la olmaydi.

XARID BO'YICHA MISOLLAR

Xarid jarayonida xolislik va raqobat muhim.

Quyidagi vaziyatlarda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin.

Har bir holatda xavfni aniqlang va to'g'ri harakatni tanlang.



1



Aloqador kompaniyadan taklif olish

Sizning yaqin qarindoshingiz yoki yaqin tanishingiz rahbarlik qilayotgan kompaniya bizning ehtiyojimiz bo'yicha taklif berdi. Uning taklifi texnik jihatdan mos va narxi maqbul.



XAVF

Yaqinlik munosabatlari qarorga ta'sir qilishi va xolis baholashga xalaqit berishi mumkin. Bu holat Bank obro'siga zarar yetkazadi.



TO'G'RI HARAKAT

O'zingizni jarayondan chetlashtiring va bu haqda rahbaringizga xabar bering. Baholashda ishtirok etmang.

2



Sotuvchidan shaxsiy imtiyoz qabul qilish

Yetkazib beruvchi kompaniya sizga bepul mahsulot yoki xizmat taklif qildi yoki chegirma berishni taklif qildi.



XAVF

Bu holat sizning xolisligingizga shubha tug'diradi va korrupsiya xavfini oshiradi. Bank ichki qoidalariga zid.



TO'G'RI HARAKAT

Bunday taklifni rad eting va zudlik bilan rahbaringizga xabar bering. Hech qanday imtiyozni qabul qilmaslik kerak.

3



Texnik talablarni ma'lum kompaniyaga moslashtirish

Siz texnik shartlarni ataylab ma'lum kompaniyaning mahsulotiga moslab yozish imkoniyatiga egasiz.



XAVF

Bu holat raqobatni cheklaydi va boshqa ishtirokchilarni nohaq ustunlikdan mahrum qiladi. Manfaatlar to'qnashuvi hisoblanadi.



TO'G'RI HARAKAT

Talablarni obyektiv, neytral va bozor standartlariga mos holda belgilang. Barcha yetkazib beruvchilarga teng imkoniyat yarating.



ESDA TUTING!

Xarid jarayonidagi xolislik — Bank faoliyatiga bo'lgan ishonchning asosidir. Shaxsiy manfaat hech qachon ustun qo'yilmasligi kerak.

ISHGA QABUL BO'YICHA MISOLLAR

Ishga qabul qilish jarayonida adolat, shaffoflik va xolislikni ta'minlash Bank obro'sini mustahkamlaydi. Quyidagi vaziyatlarda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin. Har bir holatda xavfni aniqlang va to'g'ri harakatni tanlang.



1



Do'stingni yoki qarindoshingni tavsiya qilish

Sizga yaqin tanishingiz bo'sh ish o'ringa ishga kirishi uchun tavsiya so'raydi va siz uning CV'sini ko'rib chiqishga aralashasiz.



XAVF

Sizning shaxsiy munosabatingiz qabul qilish qaroriga ta'sir qilishi mumkin va bu adolatsizlikka olib keladi.



TO'G'RI HARAKAT

Tavsiya jarayonidan chetlashing va barcha nomzodlar uchun belgilangan tartib va mezonlarga rioya qiling. Agar tavsiya qilsangiz, bu haqida HR bo'limini xabardor qiling.

2



Suhbat jarayoniga aralashish

Nomzod sizning do'stingiz va siz suhbat komissiyasiga ta'sir qilib, uni ustun qo'yishga harakat qilasiz.



XAVF

Bu xolislikka putur yetkazadi va boshqa nomzodlarning haqlariga zid bo'ladi. Bank ichki qoidalariga zid harakat hisoblanadi.



TO'G'RI HARAKAT

Suhbat jarayoniga aralashmarig. Nomzodlar fagat malaka va tajribasi asosida baholansin. Har qanday aloqadorlik mavjud bo'lsa, komissiya a'zo ligidan o'zingizni chetga oling.

3



Ichki ma'lumotlardan foydalanish

Siz tanishingizga bo'sh ish o'rni va oshiriladigan talablar haqida oldindan ma'lumot berasiz, bu esa unga ustunlik beradi.



XAVF

Maxfiy ma'lumotlardan foydalanish Bank siyosatiga zid bo'lib, ishonchni susaytiradi va korrupsiya risklarini yuzaga keltiradi.



TO'G'RI HARAKAT

Maxfiy ma'lumotlarni tarqatmasih. Barcha nomzodlar teng sharoitda ishtirok etishini ta'minlash va etik qoidalarga to'liq rioya qilish.



ESDA TUTING!

Ishga qabul qilishda xolislik — to'g'ri odamni tanlash va Bankning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga xizmat qiladi. Har qanday aloqadorlik yoki manfaatlar to'qnashuvi haqida ochiq xabar bering.

RAHBARLAR UCHUN ALOHIDA HOLATLAR VA MISOLLAR

Rahbarlarning qarorlari Bank uchun muhim va ta'siri katta bo'ladi. Shuning uchun ular manfaatlar to'qnashuvi xavflariga alohida e'tibor berishi zarur. Quyidagi misollar rahbarlar uchun dolzarb holatlarni ko'rsatadi.

1



Bo'ysunuvchi xodim bilan yaqin shaxsiy munosabat

Rahbar o'ziga yaqin xodimni asosli sabablarsiz rag'batlantiradi, lavozimga tayinlash yoki bonus berishda ustuvorlik qiladi.



XAVF

Bu holat adolatsizlikka, jamoada norozilikka va korrupsiya xavfiga olib keladi.



TO'G'RI HARAkat

Barcha qarorlar faqat ish natijasi, malaka va Bank siyosatiga muvofiq qabul qilinishi kerak. Shaxsiy yaqinlik qarorga ta'sir qilmasin.

2



Yetkazib beruvchi yoki mijoz bilan yaqin aloqalar

Rahbar yaqin tanishiga tegishli kompaniya yoki mijozga nisbatan imtiyozli shartlar yaratadi yoki keraksiz ustunlik beradi.



XAVF

Bu holat Bank manfaatlariga zarar yetkazadi, moliyaviy yo'qotishlarga va obro'ga putur yetkazishi mumkin.



TO'G'RI HARAkat

Shartlar va bitimlar faqat Bank talablari va bozor sharoitlariga asoslangan holda, shaffof va hujjatlashtirilgan tarzda amalga oshirilishi lozim.

3



Qarindoshning Bankda ishlashi

Rahbar o'z qarindoshini ishga qabul qilish, lavozimini o'zgartirish yoki rag'batlantirishda ishtirok etadi.



XAVF

Bu holat manfaatlar to'qnashuviga olib keladi va Bankning ichki siyosatiga zid.



TO'G'RI HARAkat

Qarindoshlar bilan bog'liq masalalarda rahbar qaror qabul qilish jarayonidan chetda qolishi va bu haqida bevosita rahbariga xabar berishi shart.



ESDA TUTING!

Rahbarning halolligi — Bank madaniyatining poydevori.
Xolislik, adolat va shaffoflik sizdan boshlanadi!

XIZMAT TEKSHIRUVI MISOLLARI

Xizmat tekshiruv — Korrupsiyaga qarshi kurashish va tegishli bo'linmalar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, baholash, bartaraf etish hamda profilaktik choralarni belgilash maqsadida o'tkaziladi.

Quyidagi misollar tekshiruv jarayonida aniqlanishi mumkin bo'lgan holatlarni ko'rsatadi.



1



Do'stingni yoki qarindoshingni tavsiya qilish

Sizga yaqin tanisthingiz bo'sh ish o'ringa ishga kirishi uchun tavsiya so'raydi va siz uning CV'sini ko'rib chiqishga aralashasiz.



XAVF

Bank bunday holat haqida kech xabar topadi, natijada noto'g'ri qaror qabul qilinishi va obro'ga zarar yetishi mumkin.



TO'G'RI HARAKAT

Xodim manfaatlar to'qnashuvini darhol xabar qiladi. Bank tegishli tadbirlarni ko'rib chiqib, holatni bartaraf etadi.

2



Suhbat jarayoniga aralashish

Nomzod sizning do'stingiz va siz suhbat komissiyasiga ta'sir qilib, uni ustun qo'yishga harakat qilasiz.



XAVF

Bu xolislikka putur yetkazadi va boshqa nomzodlarning haqlariga zid bo'ladi. Bank ichki qoidalariga zid harakat hisoblanadi.



TO'G'RI HARAKAT

Suhbat jarayoniga aralashmang. Nomzodlarni faqat malaka va tajribasi asosida baholansin. Har qanday aloqa doriik mavjud bo'lsa, komissiya a'zo ligidan o'zingizni chetga oling.

3



Tekshiruvga to'sqinlik qilish yoki bosim o'tkazish

Xodim yoki uchinchi shaxs tekshiruv jarayoniga aralashadi, bosim o'tkazadi yoki ma'lumotlarni o'zgartirishga harakat qiladi.



XAVF

Tekshiruv mustaqilligi buziladi, haqiqiy holat aniqlanmaydi va Bank qonun oldida javobgarlikka tortilishi mumkin.



TO'G'RI HARAKAT

Tekshiruv mustaqil, xolis va qonunchilikka muvofiq o'tkaziladi. Har qanday bosim yoki aralashuv tegishli tartibda hujjatlab chiqiladi va rahbariyatga xabar beriladi.



ESDA TUTING!

Xizmat tekshiruv — xodimni jazolash emas, Bankni himoya qilish va xolis muhitni ta'minlash vositasidir. Shaffoflik va hamkorlik tekshiruv samaradorligining kalitidir.

ENG KO'P UCHRAYDIGAN XATOLAR

Manfaatlar to'qnashuvi har doim ham qasddan yuz bermaydi. Ba'zan oddiy e'tiborsizlik yoki bilmaslik ham xato va xavfli holatlarga olib keladi. Quyida xodimlar tomonidan eng ko'p uchraydigan xatolar va ularni qanday oldini olish mumkinligi keltirilgan.



1



Holatni ahamiyatsiz deb hisoblash

XAVF

“Bu hech narsa emas” deb o'ylab, holatni e'tiborsiz qoldirish.



Har bir holatni baholang va shubha bo'lsa, xabar bering.

2



Yaqin qarindosh yoki tanishlar bilan ishlash haqida xabar bermaslik

XAVF

Qarindosh yoki tanishlar bilan birga ishlash holatini yashirish.



Barcha aloqadorliklar haqida ochiq va o'z vaqtida xabar bering.

3



Mehmondorchilikni qabul qilish

XAVF

Yetkazib beruvchi yoki mijozdan mehmondorchilik, pullik xizmat yoki sovg'a qabul qilish.



Rad etish yoki xabar berish – sizni himoya qiladi.

4



Qo'shimcha daromad yoki tashqi faoliyat haqida xabar bermaslik

XAVF

Tashqi faoliyat yoki qo'shimcha daromad manbai haqida Bankni xabardor qilmaslik.



Tashqi faoliyat va daromadlar haqida oldindan ruxsat oling va xabar bering.

5



Hujjatlarni noto'liq yoki noto'g'ri rasmiylashtirish

XAVF

Hujjatlarni to'liq, aniq va haqiqoniy rasmiylashtirmaslik.



Hujjatlarni to'g'ri yuriting, tekshiring va saqlang.

6



Xavfni o'z vaqtida aniqlamaslik va xabar bermaslik

XAVF

Xavfli holatlarni aniqlagan holda, ularni o'z vaqtida rahbariyatga xabar bermaslik.



Shubha tug'dirgan holatni yashirmang – o'z vaqtida xabar bering.



ESDA TUTING!

Xatoni tan olish – zaiflik emas, balki mas'uliyat.
O'z vaqtida aniqlash va xabar berish – eng to'g'ri qarordir.



Halollik
Bizning kuchimiz.



Shaffoflik
Ochiq muloqot va ishonch.



Adolat
Qarorlarimizda xolis va adolatli bo'lamiz.



Mas'uliyat
Har bir qaror uchun javobgarmiz.

QONUNBUZILISHLAR HAQIDA XABAR BERISH

Bankimizda halollik, oshkoralik va qonun ustuvorligini ta'minlash barchamizning burchimizdir. Agar siz qonunbuzilish, korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi yoki noqonuniy holatlarga duch kelsangiz – xabar bering! Sizning xabaringiz Bankimizni yanada adolatli va ishonchli qiladi.

KO'P BERILADIGAN SAVOLLAR (FAQ)

- | | | | |
|----|----|--|--|
| 01 | ? | Qaysi holatlar haqida xabar berishim mumkin? | Korrupsiya, pora taklifi yoki berilishi, firibgarlik, manfaatlar to'qnashuvi, soxta hujjatlar, mansab vakolatidan suiiste'mol qilish va boshqa qonunbuzilish holatlari haqida. |
| 02 | 🛡️ | Xabar berishim uchun isbotim bo'lishi shartmi? | Yo'q. Sizda faqat shubha bo'lsa ham, xabar berishingiz mumkin. Biz har bir xabarni sinchkovlik bilan tekshiramiz. |
| 03 | 👤 | Mening shaxsiy ma'lumotlarim maxfiy qoladimi? | Ha. Sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz qat'iy maxfiy saqlanadi va faqat vakolatli shaxslar biladi. |
| 04 | 🛡️ | Agar yolg'on xabar bersam, nima bo'ladi? | Asossiz va yolg'on xabar berish intizomiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. |
| 05 | 🗨️ | Xabarim ko'rib chiqilganini qanday bilaman? | Agar aloqa ma'lumotlaringizni qoldirsangiz, tekshiruv jarayoni yakunlangandan so'ng sizga ma'lumot beriladi. |
| 06 | ⚖️ | Menga nisbatan bosim yoki kamsitish bo'lsa-chi? | Siz qonun bilan himoyalangansiz. Bunday holatlar mustaqil ravishda tekshiriladi va javobgarlikka tortiladi. |



ESDA TUTING!

Qonunbuzilish haqida xabar berish – bu ma'suliyat va vatanparvarlikdir. Birgalikda halol va shaffof Bankni quramiz!



XABAR BERISH KANALLARI



ISHONCH TELEFONI
0-800-120-88-88

Bepul va maxfiy.
Kuniga 24 soat,
haftaning 7 kuni
qabul qilinadi.



TELEGRAM BOT
@sqbantikor_bot

Tez, qulay va
maxfiy tarzda
xabaringizni
yuboring.



SQB.UZ RASMIY SAYTI
www.sqb.uz

Rasmiy veb-sayt
orqali xabar
yuborish shakli
mavjud.



**COMPLIANCE
HOTLINE**
sqb.uz/uz/compliance-hotline/

Rasmiy veb-sayt
orqali xabar
yuborish shakli
mavjud.



YOZMA SHAKLDA

Bankning barcha
filial va bo'linmalarida
joylashgan maxsus
qutilar orqali.



SIZ XAVFSIZSIZ!

Bankimizda xabar bergan shaxsning shaxsiy ma'lumotlari qat'iy maxfiy saqlanadi va uni himoya qilish kafolatlanadi. Xabar berish uchun hech qanday salbiy oqibatlariga yo'l qo'yilmaydi.



**MAXFIYLIK
KAFOLATLANGAN**



**HIMOYA
QILINASIZ**



**ADOLAT VA
SHAFFOLIK**



Sizning xabaringiz – Bankimizda halollik va adolat muhitini yaratishda muhim qadamdir!

XODIMNING CHECKLIST'I



Quyidagi chek-list savollariga halol javob berib, o'zingizni tekshirib chiqing.

Agar barcha javoblaringiz "HA" bo'lsa, siz to'g'ri yondashyapsiz!



1		Qarindoshlarim yoki yaqinlarim ishtirok etayotgan qarorlarni qabul qilishda bevosita qatnashmayapmanmi? Agar ishtirok etayotgan bo'lsam, rahbarimga xabar berdimmi?	HA ☐	YO'Q ☐
2		Shaxsiy manfaatim Bank manfaatiga zid bo'ladigan holatlar mavjud emasmi? Qarorlarim faqat Bank manfaatiga xizmat qiladimi?	HA ☐	YO'Q ☐
3		Men sovg'a, mukofot yoki boshqa manfaat (qimmatbaho buyum, xizmat, imtiyoz va h.k.) qabul qilmaganmanmi? Qabul qilingan bo'lsa, Bank siyosatiga muvofiq rasmiylashtirdimmi?	HA ☐	YO'Q ☐
4		Agar mening vazifalarimda manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lishi mumkin bo'lsa, deklaratsiyani o'z vaqtida topshirdimmi? Yoki o'zgarishlar yuz berganda yangiladimmi?	HA ☐	YO'Q ☐
5		Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holat haqida rahbarimni xabardor qildimmi? Xabarnoma taqdim etish majburiyatimni bajardimmi?	HA ☐	YO'Q ☐
6		Barcha harakatlarim qonunchilikka, Bank ichki siyosatiga va etikaga muvofiqmi? Agar shubham bo'lsa, maslahat oldimmi yoki o'qidimmi?	HA ☐	YO'Q ☐



ESDA TUTING!

Manfaatlar to'qnashuvini yashirish – bu faqat intizomiy javobgarlikka emas, Bank obro'siga ham zarar yetkazadi.
Ochiqlik va halollik – har bir xodimning kasbiy burchi va mas'uliyatidir.



**HALOLLIK
BIZNING KUCHIMIZ!**



SIZ BIZ UCHUN MUHIMSIZ!

Sizning halolligingiz – Bankimizning buguni va kelajagini mustahkamlovchi eng muhim qadriyat.



RAHBARNING CHECKLIST'I



MENING MAQSADIM:

Xolis, adolatli va shaffof muhit yaratish orqali Bank obro'sini mustahkamlash va har bir xodimda ishonch uyg'otish.

Rahbar sifatida siz jamoa uchun namuna va yetakchisiz. Quyidagi chek-list sizga adolatli, xolis va shaffof boshqaruv olib borishda yordam beradi.

MEN O'ZIMGA QUIYIDAGI SAVOLLARNI BERAMAN:

	1 Qaror qabul qilish jarayonlari xolis va shaffof bo'lishi uchun barcha zarur choralarni ko'ryapmanmi?	HA ☐	YO'Q ☐
	2 Jamoamdagi xodimlar manfaatlar to'qnashuvi haqida xabardormi va ularni tushunadimi?	HA ☐	YO'Q ☐
	3 Xodimlar manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini o'z vaqtida topshirishadimi?	HA ☐	YO'Q ☐
	4 Manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzasidan kelgan xabarnomalarni o'z vaqtida ko'rib chiqyapmanmi?	HA ☐	YO'Q ☐
	5 Qarindosh, yaqin tanish yoki shaxsiy manfaatim bo'lgan holatlarga yo'l qo'ymayapmanmi?	HA ☐	YO'Q ☐
	6 Qarorlarim Bank manfaatlariga xizmat qiladimi va ularni hujjatlashtirayotimmi?	HA ☐	YO'Q ☐
	7 Qoidabuzarlik holatlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lyapmanmi?	HA ☐	YO'Q ☐
	8 Zarur hollarda Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati bilan maslahatlashib, to'g'ri qaror qabul qilyapmanmi?	HA ☐	YO'Q ☐



ESDA TUTING!

Rahbarning xolisi qarori – jamoaning ishonchi, Bankning buguni va kelajagini belgilaydi.



MINI TEST

(10 TA VAZIYAT)

Quyidagi vaziyatlarni diqqat bilan o'qing va eng to'g'ri javobni tanlang.

Faqat bitta javob to'g'ri bo'lishi mumkin.



Eslatma!

Har bir vaziyatda Bank manfaatlarini, xolislik va shaffoflik tamoyillarini inobatga oling.



1



Siz kredit bo'yicha qaror qabul qilayotgan mijoz — akingizning yaqin do'sti. Siz qanday harakat qilasiz?

- A Kreditni rasmiylashtirasiz, chunki u ishonchli mijoz.
- B Rahbarga xabar berib, bu ishda ishtirok etmayman.
- C Hech kimga aytmayman, o'zim hal qilaman.

2



Tenderda sizning qarindoshingiz ishtirok etayotgan korxona ishtirok etmoqda. Siz nima qilasiz?

- A Korxonaga ustunlik berishim mumkin.
- B Rahbarga va xarid komissiyasiga xabar beraman.
- C Bu oddiy holat, xabar berish shart emas.

3



Mijoz sizga qimmatbaho sovg'a yubordi va "rahmat" dedi. Sizning harakatingiz?

- A Sovg'ani qabul qilib, rahmatdorlik bildiraman.
- B Sovg'ani qabul qilmayman va qaytaraman.
- C Sovg'ani qabul qilib, rahbarga aytaman.

4



Sizning bo'limingizga yangi xodim ishga qabul qilinmoqda. Nomzod — sizning yaqin qarindoshingiz. Siz nima qilasiz?

- A Nomzodning malakasi yetarli bo'lsa, o'zim tavsiyalarni qilaman.
- B Bu jarayonda ishtirok etmayman va rahbarga xabar beraman.
- C Hech kimga aytmayman, tavsiyalarni bildiraman.

5



Ishdan tashqari vaqtda siz Bank mijoziga maslahat berib, shaxsiy daromad olasiz. Bu holat qanday baholanadi?

- A Bu ruxsat etilgan, chunki ish vaqtidan tashqari.
- B Manfaatlarni to'qnashuvi yuzaga keladi.
- C Bu haqida faqat rahbarim bilsa bo'ladi.

6



Siz xizmat safarida bo'lsangiz, avtoulashuv uchun avtotransportni shaxsiy maqsadlarda foydalanish mumkinmi?

- A Faqat yoqilg'i to'lasam, foydalanishim mumkin.
- B Mutlaqo mumkin emas.
- C Qisqa masofa bo'lsa, foydalanish mumkin.

7



Sizdan mijoz hisobini tezroq ma'qullab berish uchun "yordam" so'radi. Sizning javobingiz?

- A Yordam beraman, bu hech kimga zarar qilmaydi.
- B Rad etaman va rahbarga xabar beraman.
- C Yordam berish evaziga biror narsa olsam ham bo'ladi.

8



Siz o'z bo'ysuningizdagi xodimning deklaratsiyasini to'ldirmaganini bilib qoldingiz. Siz nima qilasiz?

- A Eslatib qo'yaman, keyin to'ldirsa bo'ladi.
- B Uni to'ldirishni talab qilaman va nazorat qilaman.
- C Bu shaxsiy ish, aralashmayman.

9



Sizning do'stingiz Bankka mahsulot yetkazib bermoqchi. Siz bu jarayonda ishtirok etasizmi?

- A Do'stim bo'lsa ham, jarayonda ishtirok etmayman.
- B Do'stimning yordami berishim mumkin.
- C Ishtirok etaman, lekin xolis bo'laman.

10



Rahbar sizdan ma'lum bir ma'lumotni boshqa bo'lim xodimidan yashirishni so'radi. Sizning harakatingiz?

- A Rahbar ko'rsatmasi bilan yashiraman.
- B Ma'lumotni yashirmayman va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga murojaat qilaman.
- C Faqat kerakli qismini yashiraman.



ESDA TUTING!

To'g'ri javoblar keyingi sahifada keltirilgan.
O'zingizni sinab ko'ring va bilimingizni mustahkamlang!



TO'G'RI JAVOBLAR VA IZOHLAR



ESLATMA!

Har bir vaziyatda Bank
manfaatlarini, xolislik va
shaffoflik tamoyillarini
inobatga oling.

Quyidagi jadvalda mini testdagi 10 ta vaziyat bo'yicha
to'g'ri javoblar va izohlar keltirilgan.

Nº	TO'G'RI JAVOB	IZOH
1	B	Rahbarga xabar berish to'g'ri yo'l. Qarindoshning yaqin do'stini ishga qabul qilish to'qnashuv xavfni keltirib chiqaradi. Qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etmaslik va rahbarga xabar berish lozim.
2	B	Rahbar va xarid komissiyasiga xabar berish kerak. Qarindosh ishtirokidagi korxona bo'lsa, bu holat xolislikka ta'sir qilishi mumkin. Vaziyatni oshkor qilish shaffoflik va adolatni ta'minlaydi.
3	A	Sovg'a qabul qilib, rahbarga aytish kerak. Sovg'a va "rahmat" qabul qilish Bank siyosatiga zid. Darhol xabardor etish – halollik va ishonchning belgisi.
4	B	Bu jarayonda ishtirok etmaslik va xabar berish kerak. Nomzod yaqin qarindosh bo'lsa, tanlovda ishtirok etish mumkin emas. Rahbarga xabar berib, o'zingizni chetlashtirishingiz lozim.
5	A	Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Maslahat so'rash va masofa to'g'ri bo'lsa ham, bunday holatda daromad olish man etiladi, rahbarga xabar berish talab etiladi.
6	A	Faqat yoqlig'i to'lasam, foydalanish mumkin. Bank mulkidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Avtodaasport faqat xizmat maqsadida foydalanish lozim.
7	B	Rad etaman va rahbarga xabar beraman. Yordam evaziga biror narsa so'rash – poraxo'rlik xavfi hisoblanadi. Buni rad etish va rahbarga xabar berish to'g'ri yo'l.
8	B	Uni to'ldirishni talab qilaman va nazorat qilaman. Deklaratsiya – manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda muhim vosita. Rahbar sifatida nazorat qilish sizning mas'uliyatingiz.
9	B	Do'stlaringa yordam berishim mumkin. Loyihalarni tanlashda shaxsiy tanish-bilishlarga emas, mezonlarga asoslanish lozim. Adolatli yondashuv Bank obro'sini mustahkamlaydi.
10	B	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati bilan maslahatlashaman. Rahbarning ma'lumoti yashirilsa, bu Bank siyosatiga va qonunchiligiga zid. Zarur hollarda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati bo'lgan maslahatlashib, to'g'ri va xavfsiz yo'l tutish lozim.



ESDA TUTING!

Har bir vaziyatda xolislik, halollik va shaffoflikka amal qilish –
sizni va Bankimizni himoya qiladi!



TO'G'RI QAROR – ISHONCHNI MUSTAHKAMLAYDI.

NOTO'G'RI QAROR – OBRO' VA KELAJAKKA ZARAR YETKAZADI.



XULOOSA

Manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri boshqarish – Bank obro'sini, mijozlar ishonchini hamda har bir xodim va rahbarning kasbiy mas'uliyatini ta'minlaydi.

ADOLAT

Qarorlarimizda xolis va adolatli bo'lamiz.

ISHONCH

Mijozlar, hamkorlar va jamiyat ishonchini har kuni qozonamiz.

HALOLLIK

To'g'rilik va halollik bizning har bir qarorimizda.

SHAFFOFLIK

Ochiq ma'lumot va shaffof jarayonlar – bizning tamoyilimiz.

XOLISLIK

Shaxsiy manfaatlarni hetga surib, faqat Bank manfaatini o'ylaymiz.

MAS'ULIYAT

Har bir qarorimiz va har bir harakatimiz uchun javobgarmiz.

**HALOLLIK –
BIZNING ASOSIY
QADRIYATIMIZ**

“

Halollik – barqaror kelajagimiz garovi.

”

UNUTMANG!



Qoidalarga amal qilish – o'zingizni va Bankimizni himoya qiladi.



Har bir xabar – korrupsiyaga qarshi muhim qadam.



Oldini olish – eng yaxshi yechimdir.



Shaffof muhit – barqaror rivojlanish kafolati.



Birgalikda halollik madaniyatini mustahkamlaymiz.

ALOQA MA'LUMOTLARI

Agar Siz manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa qonunbuzilish holatlari haqida xabar berishni istasangiz, quyidagi kanallar orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.



ISHONCH TELEFONI

0-800-120-88-88

Bepul. 24/7. Maxfiylik kafolatlanadi.



TELEGRAM BOT

@sqbantikor_bot

24/7. Tezkor va qulay.



COMPLIANCE HOTLINE

sqb.uz/uz/compliance-hotline/

Onlayn murojaat qoldirish imkoni.



BANK RASMIY SAYTI

www.sqb.uz

Yangiliklar va foydali ma'lumotlar.



**Xabar bering —
biz hal qilamiz!**

Halollik bilan birga —
barqaror kelajak sari!



Telegram'da
bizni kuzating!
@sqbantikor_bot



BIZNING QADRIYATLARMIZ

**Halollik**

Biz so'zimizda
turamiz.

**Ishonch**

O'zaro hurmat va
ochiqlikda mustahkamlanadi.

**Mas'uliyat**

Har bir qarorimiz va
har bir harakatimiz uchun
javobgarmiz.

**Adolat**

Qarorlarimizda
xolis va adolatli
bo'lamiz.

**Shaffoflik**

Ochiq muloqot va
shaffof jarayonlarga
rioya qilamiz.

**Barqarorlik**

Bugungi harakatlarimiz —
kelajak avlodlarimiz
uchun poydevor.



MANFAATLAR TO'QNASHUVINI ANIQLASH VA BOSHQARISH

METODIK QO'LLANMA



O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, 100000,
Shahrisabz ko'chasi, 3 uy



0-800-120-88-88
Bepul. 24/7. Maxfiylik kafolatlanadi.



www.sqb.uz



SQB Bank



Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati



2026-yil